

**GOSPITAL TA'LIMDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA
ILK MATEMATIK TASAUVURLARNI SHAKLLANTIRISH**

Yusupova Nargiza Abdumalikovna

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi

Andijon viloyati filiali tarbiyachisi:

yusufinomjonov612@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada gospital ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirishning nazariy asoslari, psixologik-pedagogik omillari va amaliy metodlari tahlil qilinadi, samarali metodik yondashuvlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: gospital ta'lim, maktabgacha yosh, matematik tasavvurlar, didaktik o'yinlar, individual yondashuv, kognitiv rivojlanish, fazoviy tushunchalar, pedagogik metodlar

Kirish

Maktabgacha yosh davri shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi va idrok etish jarayonlari jadal rivojlanadi [2; 3]. Ushbu davrda shakllangan bilim va ko'nikmalar keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, matematik tasavvurlarni shakllantirish bolaning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gospital ta'lim sharoitida esa mazkur jarayon o'ziga xos murakkabliklarga ega. Chunki bola bir vaqtning o'zida ham ta'lim oladi, ham davolanish jarayonini boshdan kechiradi. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, individual yondashuv va psixologik sezgirlikni talab etadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish muammosi keng o'rganilgan, biroq gospital ta'lim sharoitida ushbu masala alohida va chuqurroq tadqiq etishni talab qiladi. Xususan, zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida bolaning faoliyat asosida o'rganishi, individual rivojlanish trayektoriyasi va emotsional holatining ta'lim samaradorligiga ta'siri alohida ta'kidlanadi [1; 3; 4].

Nazariy asoslar va metodologik yondashuv

Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi pedagogika va bolalar psixologiyasi fanlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda bolaning bilish faoliyati asosiy o'rinni egallaydi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, bola matematik tushunchalarni tayyor holda emas, balki amaliy faoliyat, tajriba va ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida egallaydi [2; 3].

Shu nuqtai nazardan, gospital ta'lim sharoitida quyidagi metodologik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

1. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – bola o'yin va amaliy mashg'ulotlar orqali bilimni egallaydi. [1]

2. Individual yondashuv – har bir bolaning sog'ligi, qobiliyati va psixologik holatini hisobga olish. [4]

3. Integrativ yondashuv – matematik bilimlarni nutq, tasavvur va ijtimoiy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish.

Mazkur yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolaning matematik tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois, ushbu jarayonning mazmunini aniqlash uchun matematik tasavvurlar tarkibiga kiruvchi asosiy tushunchalarni ko'rib chiqamiz.

I. Son va miqdor tushunchalarini shakllantirish

Son tushunchasi bolaning matematik tafakkurining asosi hisoblanadi. Bola dastlab predmetlarni sanash orqali miqdoriy tasavvurlarni hosil qiladi. Ushbu jarayon didaktik o'yinlar yordamida samarali tashkil etiladi [1].

1. Storytelling metodi. Bu metoddan foydalanish orqali matematik tushunchalar qiziqarli shaklda yetkaziladi. Bu usul bolaning nafaqat matematik, balki nutqiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2].

2. "Yumshoq raqamlar" metodi. Bu metodda bolalar raqamlarni yumshoq plastilin yordamida hosil qilib, qo'l bilan ushlab his qilish orqali o'rganadi. Mayda motorikani rivojlantiradi, raqamlarni eslab qolish va farqlash ko'nikmasini hosil qiladi.

II. Geometrik shakllarni o'zlashtirish

Geometrik shakllarni o'rganish bolaning vizual va fazoviy tafakkurini rivojlantiradi. Bola atrof-muhitdagi predmetlar orqali shakllarni ajratishni o'rganadi. Didaktik o'yinlar, masalan, "Shaklni top" yoki "Ortiqchasini aniqlash" kabi topshiriqlar orqali bola tahlil qilish va solishtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi [2]. "Shakllar detektivi" o'yini kuzatuvchanlikni oshiradi, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi. "Shakllardan rasm yasaymiz" o'yinida tasavvur va ijodkorlik rivojlanadi.

III. Kattalik va o'lcham tushunchalari

Kattalik tushunchalarini shakllantirishda ko'rgazmali va amaliy metodlar yetakchi o'rin tutadi. Bola predmetlarni solishtirish orqali "katta-kichik", "uzun-qisqa" kabi tushunchalarni o'zlashtiradi. Amaliy faoliyat – masalan, suv hajmini taqqoslash yoki og'irlikni sezish – bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi [3].

IV. Fazoviy va vaqt tushunchalari

1. Fazoviy tasavvurlar bolaning atrof-muhitni anglashida muhim ahamiyatga ega. "Oldinda-orqada", "yuqorida-pastda" kabi tushunchalar harakatli o'yinlar orqali samarali o'zlashtiriladi [1]. "Qarmoqcha" metodi qo'l harakat koordinatsiyasini

yaxshilaydi, diqqatni jamlaydi va tez fikrlashni rivojlantiradi. “To‘g‘ri joylashtir” o‘yini orqali fazoviy tushunchalar mustahkamlanadi.

2. Vaqt tushunchalari esa ketma-ketlikni anglash orqali shakllanadi. Bu esa bolaning mantiqiy fikrlash jarayonini rivojlantiradi [3].

Gospital ta’lim sharoitida pedagogik shart-sharoitlar

Gospital ta’lim sharoitida quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:
psixologik qulay muhit yaratish;
ortiqcha yuklamani kamaytirish;
qisqa, mazmunli mashg‘ulotlarni tashkil etish;
rag‘batlantirish va motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning emotsional holati uning bilish faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [3]. Shu sababli pedagogning empatiyasi va qo‘llab-quvvatlashi muhim hisoblanadi [4].

Gospital ta’lim sharoitida matematik tasavvurlarni shakllantirish an’anaviy ta’limdan farqli ravishda ko‘proq moslashuvchanlikni talab etadi. Bu jarayonda o‘yin texnologiyalarining qo‘llanilishi, individual yondashuv va psixologik qo‘llab-quvvatlash o‘zaro uyg‘un holda olib borilishi zarur.

Shunday qilib, ilmiy manbalar va pedagogik amaliyot tahlili gospital ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishning eng samarali metodlarini aniqlash imkonini berdi.

Xulosa qilib aytganda, gospital ta’lim sharoitida matematik tasavvurlarni shakllantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Didaktik o‘yinlar, amaliy faoliyat va individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni yuqori samaradorlikka ega [1; 4]. Shuningdek, pedagog va ota-onalar hamkorligi, psixologik qo‘llab-quvvatlash va bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish uning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi [2; 3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2020). Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. Toshkent.
2. Hasanboyeva, O. (2018). Maktabgacha pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Nishonova, Z. (2017). Bolalar psixologiyasi. Toshkent.
4. Куряева Ирина Викторовна - “АЛЬТЕРНАТИВНАЯ ФОРМА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИЕ В СТАЦИОНАРЕ МЕДИЦИНСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ” (2024)